

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.15/03.06.2023.FM/T.73.08
RAQAMLI ILMIY KENGASHI QOSHIDAGI BIR MARTALIK ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

TURDIYEV MALIKJON SAYFIDDIN O‘G‘LI

**QURUQ ISHQALANISH ELEMENTLARI MAVJUD
KONSTRUKSIYALAR UCHUN DINAMIK MASALALAR**

01.02.04 – “Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi”

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Fizika - matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Physical-mathematical Sciences**

Turdiyev Malikjon Sayfiddin o'g'li Quruq ishqalanish elementlari mavjud konstruksiyalar uchun dinamik masalalar	3
Турдиев Маликжон Сайфиддин ўғли Динамические задачи для конструкций при наличии элементов с сухим трением.....	23
Turdiev Malikjon Sayfiddin o'g'li Dynamic problems for structures with dry friction elements	45
E'lon qilingan ishlar ro'yxati Список опубликованных работ List of published works	49

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.15/03.06.2023.FM/T.73.08
RAQAMLI ILMIY KENGASHI QOSHIDAGI BIR MARTALIK ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

TURDIYEV MALIKJON SAYFIDDIN O‘G‘LI

**QURUQ ISHQALANISH ELEMENTLARI MAVJUD
KONSTRUKSIYALAR UCHUN DINAMIK MASALALAR**

01.02.04 – “Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi”

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/FM928 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<https://tstu.uz/page/122>) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mirzayev Ibraxim

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mardonov Batir

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Safarov Ismail Ibroximovich

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.15/03.06.2023.FM/T.73.08 raqamli ilmiy kengashi qoshidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025 yil 17-yanvar soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100167, Toshkent shahar, Temiryo'Ichilar ko'chasi, 1-uy. 259-xona. Tel.: (+99871) 299-00-01, fax: (+99871) 239-57-54, e-mail: rektorat@tstu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100167, Toshkent shahar, Temiryo'Ichilar ko'chasi, 1-uy. Tel.: (+99871) 299-05-66.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil _____ raqamli reestr bayonnomasi).

X.M. Shadimetov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash raisi, fizika-matematika
fanlari doktori, professor

F.A. Nuraliyev

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, fizika-matematika
fanlari doktori, professor

D.B. Eshmamatova

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
fizika-matematika fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yangi qurilayotgan zamonaviy bino va inshootlarning seysmik mustahkamligini oshirish va samarali seysmoizolyatsiya usullarini yaratish hamda ulardan foydalanish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. So‘nggi yillarda yuz bergan yirik zilzilalar ulkan yo‘qotishlarga sabab bo‘lganligi tufayli zilzila vaqtida inshootlardagi kuzatiladigan seysmodinamik jarayonlarni o‘rganishga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Bunga yaqqol misol sifatida oxirgi yillarda Turkiya, Yaponiya, Indoneziya va Gaitida sodir bo‘lgan zilzilalar oqibatida kelib chiqqan talofatlarni aytishimiz mumkin. Shu jihatdan yer osti va yer usti inshootlarining seysmik mustahkamligiga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda zilziladan ko‘riladigan talofotlarni kamaytirish maqsadida bino va inshootlarni seysmik himoyalash sohasida izchil fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Hozirgi kunda bino va inshootlarni seysmik izolyatsiya qilishda seysmik himoya qurilmalaridan keng foydalanilayotgan bo‘lsada, seysmik himoya qurilmalarining harakati va samaradorligi yetarli darajada o‘rganilmagan. Ushbu yo‘nalishda konstruksiya elementlari orasida ishqalanish kuchlari mavjud bo‘lganligi natijasida paydo bo‘ladigan murakkab dinamik tenglamalarni yechishning algortmlarini ishlab chiqish, o‘zaro munosabatlar quruq ishqalanish modelida bo‘lganda sirpanishning boshlanish vaqtini to‘g‘ri hisobga olish muhim vazifalardan hisoblanmoqda. Shu jihatdan bino va inshootlarni seysmik to‘lqinlardan himoyalash bo‘yicha ilmiy izlanishlarni amalga oshirish hamda amaliyot uchun tavsiyalar berish dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda.

Respublikamizning 78% yer maydoni seysmik faol hududlarda joylashganligini hisobga olib, yer osti va yer usti inshootlarining zilzilabardoshligini ta‘minlash hamda seysmik mustahkamligini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida, jumladan, “...hududlarning “o‘shish nuqtalari”dan kelib chiqib, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini qurishga alohida e‘tibor qaratish...”¹ bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda yer osti va yer usti inshootlaridagi seysmodinamik jarayonlarni o‘rganish, tahlil qilish va bu turdagi murakkab masalalarni sonli usullar bilan yechish hamda algortmlarini ishlab chiqish muhim vazifalardan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 maydagi PF-144-sonli “O‘zbekiston Respublikasi seysmik xavfsizligini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-maydagi PQ-158-sonli “O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2024 yil 17

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

apreldagi PQ-161-sonli “Bino va inshootlarning zilzilabardoshlilikini oshirish hamda seysmik xavfni monitoring qilish faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, hamda mazkur faoliyat sohalariga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab ko‘rsatilgan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ma’lumki, seysmik to‘lqinlar ta’sirida bino konstruksiyalarida va yer osti quvurlarida vujudga keladigan seysmodinamik jarayonlarni o‘rganish hamda bino va inshootlarni seysmik izolyatsiya qilish bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan va olib borilmoqda, shu jumladan Psyrras N.K., Sextos A.G., O’Rourke M.J., Toprak S., Aynbinder A.B., Borodavkin P.P., Massarsch K.R., Bashirzade S.P., Newmark N.M., Takahashi T., Liu X.L., Muravyeva L., Ilyushin A.A., Israilov M.Sh., Aleksandrov A.A., Apsemetov M.Ch., Andashev A.J., Lapin V.A., Mkrtychev O.V., Mingazova S.M., Erjanov S.E., Kuznetsov S.V., Kuznetsov V.D, Chen S., Ayzenberg Y.M., Arutunyan A.R., Vyscrebentseva M.A, Le Q.V., Uzdin A.M., Sandovich T.A., Amin Al Naser M.S., Bakre S.V., Sanjaya K.P., Nikitin L.V., Aleksandrova N.I., Vatin N.I., Popov V.L., Elmer F.J., Furinghetti M. Belash T.A, Tarasov V.A., Buckle I., Von Kluge P.N., Lyashenko Ya.A., Chunliang Li., Banović I., Şcheaua F.D., Pelekis I., Madabhushi G.S.P., Chopra K.A. va boshqa ko‘plab tadqiqotchilar shu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Respublikamizda ushbu yo‘nalishda taniqli olimlarimiz [Rashidov T.R.,] [Abdurashidov Q.S.], Xojmetov G.X., [Mubarakov Ya.N.], Mirsaidov M.M., Mardonov B.M., Begmatov A., Mirzayev I., [Mamatqulov Sh.M.], Sultanov K.S., Mavlonov T.M., Abdusattarov A., Xusanov B.E., Matkarimov A.X., Bekmirzayev D.A., Sagdiyev X.S., Safarov I.I., Teshayev M.X., Yuvmitov A.S., Mamatova N.T., Nishonov N.A., Qayumov A., An Ye.V., Kolmakova Ye.N., Shomurodov J.F. va boshqalar seysmik kuchlar ta’sirida bino konstruksiyalarida va yer osti quvurlaridagi dinamik jarayonlarni o‘rganish bo‘yicha o‘zlarining salmoqli hissalarini qo‘shishgan.

Xorijiy va mamlakatimiz olimlarining olib borgan ilmiy izlanishlari tahlil qilinganda aniq bo‘ldiki, yer osti va yer usti inshootlaridagi dinamik jarayonlarda konstruksiya elementlari o‘zaro quruq ishqalanish modelida bo‘lganda sirpanish hamda birgalikdagi harakatining murakkabligi tufayli bunday masalalarning to‘liq yechilmaganligi aniqlangan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tashkilot yoki ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat transport universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, 2022-2023 yillar uchun 28/2022-sonli “Real seysmik ta’sirlarda temir yo‘l ko‘priklari elementlarining nochiziqli o‘zaro ta’sirini hisobga

olib hisoblash dasturlari kompleksini yaratish” mavzusidagi ilmiy tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi seysmik to‘lqinlar ta’sirida bino konstruksiyalari va yer osti inshootlari elementlarida quruq ishqalanish kuchini hisobga olgan holda o‘ziga xos chiziqli bo‘lmagan dinamik masalani yechishning algortmini sonli usullar va mantiqiy algoritm yordamida ishlab chiqish hamda olingan natijalarni tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

grunt va quvur orasidagi o‘zaro munosabat quruq ishqalanish modelida bo‘lganda seysmik to‘lqinlar ta’sirida uzun yer osti quvurining dinamik tenglamasini oshkor chekli ayirmalar sxemasi asosida sonli yechish algoritmini ishlab chiqish;

quruq ishqalanish kuchi mavjud bino va inshootlardagi seysmodinamik jarayonlarni o‘rganish uchun harakat differensial tenglamalar sistemasini yechishda Nyumark oshkormas sxemasiga asoslangan uslub va hisoblash algortmlarini ishlab chiqish;

laborotoriya eksperimentini o‘tkazish uslubini ishlab chiqish hamda eksperiment natijalarini analitik yechim bilan solishtirish orqali turli materiallar uchun Amonton-Kulon quruq ishqalanish dinamik koeffitsiyentini aniqlash;

olingan yechimlar asosida grafiklar va animatsiyalar orqali bino va inshootlarda sodir bo‘ladigan dinamik jarayonlarni o‘rganish va bu natijalarni tahlil qilish.

Tadqiqotning obykti sifatida uzun yer osti quvuri, ko‘p qavatli bino va inshootlar hamda Atom elektr stansiyasi (AES) turbina bloki olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida grunt va quvur orasidagi o‘zaro munosabat quruq ishqalanish modelida bo‘lganda seysmik to‘lqinlar ta’sirida uzun yer osti quvurining dinamik tenglamalarini sonli yechish algoritmini ishlab chiqish hamda zilzilalarning mavjud yozuvlari asosida bino va inshootlarni seysmik to‘lqinlardan himoyalash uchun nochiziqli dinamik masalalarni yechishning sonli algoritmlarini yaratish.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishini amalga oshirish jarayonida deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi, hisoblash matematikasi va matematik modellashtirish usullari, chekli elementlar va chekli ayirmalar usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

quruq ishqalanish kuchi mavjud konstruksiyalardagi dinamik jarayonlar o‘ziga xos chiziqli bo‘lmagan masalalar bo‘lganligi uchun ularni yechishning algoritmi chekli elementlar hamda chekli ayirmalar usullari va mantiqiy algortm asosida ishlab chiqilgan;

bo‘lib o‘tgan zilzilalar yozuvlarining ma’lumotlar bazasidan tanlab olingan zilzilalarning gorizonta va vertikal komponentalaridan foydalanib, konstruksiyada quruq ishqalanish kuchi mavjud holda ilk bor “stick-slip” shaklidagi jarayonda yopishib va sirpanib harakatlanishlarning boshlanish vaqtlarini aniqlash mantiqiy algoritmi asosida dinamik masalalar yechilgan;

yer osti uzun quvuri grunt bilan o‘zaro munosabati quruq ishqalanish modeli bilan ifodalanganda seysmik to‘lqin ta’sirida quvurda “Raxmatulin to‘lqini”ga o‘xshash to‘lqin tarqalishi dinamik masalani yaratilgan sonli algoritm asosida yechib aniqlangan;

bino va inshootlarni seysmik to‘lqinlardan himoyalash uchun sirpanuvchan poydevordan foydalanish dinamik masalalarni yechish uchun yaratilgan algoritm asosida hisoblash eksperimenti orqali samarali seysmoizolyatsiya usuli ekanligi ko‘rsatilgan;

laboratoriya eksperimentini o‘tkazish bo‘yicha yangi uslub ishlab chiqilgan hamda eksperiment natijalarini analitik yechim bilan solishtirish asosida turli materiallar uchun Amonton-Kulon quruq ishqalanish dinamik koeffitsiyenti aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mazkur tadqiqot ishida ishlab chiqilgan yer osti va yer usti inshootlari uchun masalalarni yechishda chiziqli bo‘lmagan quruq ishqalanish modeli uchun haqiqiy zilzila yozuvlari asosida konstruksiyalardagi dinamik jarayonlarni tahlil qilish imkonini beruvchi hisoblash ishlarining algoritmlari va dasturiy majmuasi yaratilgan;

yer osti va yer usti inshootlarida seysmodinamik jarayonlarni o‘rganish uchun yaratilgan majmua tarkibida mavjud natijalarni grafiklar va animatsiya asosida ko‘rish hamda tahlil qilish imkoniyati yaratilgan;

bino va inshootlarni seysmik izolyatsiya qilishda poydevor va rostverk orasiga yetarli sirpanishni ta’minlovchi ftoroplast materialidan foydalanish asosdagi seysmik to‘lqinlarning yuqori qavatlariga ta’sirini kamaytirishga olib kelishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Olingan natijalarning ishonchliligi dissertatsiya ishida qo‘yilgan chiziqli bo‘lmagan masalalarning korrekt qo‘yilganligi, ularni yechishda oshkor chekli ayirmalar sxemasining turg‘unligi isbotlanganligi, sinalgan chekli elementlar va oshkormas chekli ayirmalar usullaridan foydalanilganligi, yechimlarning ishonchliligini baholashda laboratoriya eksperimenti natijalari hamda ayrim masalalarda boshqa tadqiqotchilar yechimlari bilan taqqoslanganligi va ularning natijalariga yetarlicha mos tushganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati haqiqiy zilzila yozuvlari asosida konstruksiya elementlari o‘zaro quruq ishqalanish modelida ishqalanish kuchining yo‘nalishi va sirpanishning boshlanish vaqtini aniqlashning mantiqiy algoritmi yaratilganligi, masalani yechishda mos sonli usullarning qo‘llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati seysmik kuchlar ta’sirida konstruksiyalarda sodir bo‘ladigan dinamik jarayonlarni o‘rganishning matematik modeli, hisoblash algoritmi va hisoblashda haqiqiy zilzila yozuvlaridan foydalanish imkoniyati yaratilganligi, quruq ishqalanish modeli uchun masalani yechishning algoritmlari va olingan natijalarni grafik va animatsiya ko‘rinishida tasvirlaydigan

dasturlarning yaratilishi hamda o'tkazilgan laborotoriya eksperimentlari asosida olingan tavsiyalari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Quruq ishqalanish elementlari mavjud konstruksiyalar uchun dinamik jarayonlarni o'rganish bo'yicha dissertatsiya ishining ilmiy natijalari asosida:

Tadqiqot ishida keltirilgan hisoblash algoritmlaridan foydalanish asosida hisoblangan natijalardan Andijon viloyati Asaka shahar Dustlik ko'chasi 15-uyda joylashgan 7 qavatli turarjoy binosi qurilishi obyektini loyihalash jarayonida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2024-yil 15-apreldagi 24-06/3804-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qurilish obyektini loyihalash jarayoniga qo'llash natijasida hisobloyiha ishlarining bajarilish vaqtini 1.18 martagacha tejashga, loyihalash uchun zarur bo'lgan xulosalarni oldindan chiqarishga va zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanishga erishilgan. Bu natijalarni loyiha ishlariga qo'llash orqali ish sifati va mehnat unumdorligining ortishiga erishilgan. Dissertatsiya ishi natijalari nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, zilzila ta'sirida bino, inshootlarning hamda ularning asos va poydevorlari zararlanishlari va buzilishlarining oldini olishda foydalaniladi, bundan tashqari loyihalash ishlariga sarflanadigan vaqt hamda mablag'larni tejash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari xalqaro, respublika anjumanlarida muhokama qilingan va ma'qullangan, jumladan, 14 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'kazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 28 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, jumladan 8 ta maqola O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, shundan 5 ta mahalliy va 3 ta xorijiy jurnallarda (2 tasi SCOPUS bazasida indekslangan) nashr qilingan. Shuningdek, 3 ta EHM dasturi uchun O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligidan mualliflik guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va qo'shimcha ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 115 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligi va zarurati, maqsad va vazifalari asoslanib, uning objekti va predmeti tavsiflangan. Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi yoritib berilgan. Shu bilan birga tadqiqot natijalarining ishonchliligi, amaliyotga joriy etilishi, chop etilgan ilmiy ishlar soni, dissertatsiya tarkibi va hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Seysmik to'lqinlar ta'sirida bino va inshootlardagi dinamik jarayonlar va bu yo'nalishdagi bajarilgan nazariy hamda**

eksperimental ishlar bo'yicha adabiyotlar tahlili deb nomlangan birinchi bobida seysmik kuchlar ta'siridagi bino va inshootlar hamda yer osti quvurlarida kuzatiladigan xavfli holatlar, ularni o'rganish bo'yicha chet el va mamlakatimiz olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari tahlili keltirilgan. Shuningdek, bino konstruktsiyalaridagi dinamik jarayonlar va bino konstruktsiyalarini seysmik izolyatsiya qilish bo'yicha bajarilgan nazariy-eksperimental ishlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Grunt bilan o‘zaro munosabati quruq ishqalanish modelida bo‘lgan uzun yer osti quvurining seysmodinamikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida grunt va quvur orasidagi o‘zaro munosabat quruq ishqalanish modeli ko‘rinishidagi uzun yer osti quvurlaridagi seysmodinamik jarayonlarni tahlil qilish maqsadida quvur uchun dinamik harakat differensial tenglamalarining qo‘yilishi keltirilgan. Shuningdek, quruq ishqalanish modelida quvurlardagi dinamik jarayonlar o‘ziga xos chiziqli bo‘lmagan masalalar bo‘lganligi uchun uni yechishning algoritmi sonli usullar va mantiqiy algoritm asosida ishlab chiqilgan. Bu turdagi masalalar uchun qurilgan chekli ayirmalar sxemasining turg‘unligi va sonli yechimning yaqinlashishi hamda yaratilgan mantiqiy algoritmning ishonchliligi isbotlangan. Olingan natijalar bo‘yicha tahliliy xulosalar keltirilgan.

Grunt va unda joylashgan quvurning fizik-mexanik xususiyatlariga bog‘liq ravishda “quvur-grunt” tizimining o‘zaro munosabati turli chiziqli bo‘lmagan modellar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Bu modellardan biri bo‘lgan quruq ishqalanish modeli uchun (1-rasm) uzun yer osti quvuridagi seysmodinamik jarayonlarni qarab chiqamiz.

Faraz qilaylik, to‘lqin tarqalish tezligi c_g bo‘lgan grunt da L uzunlikka ega bo‘lgan quvur o‘qi bo‘ylab grunt zarrachalari $v_g(t-x/c_g)$ tezlik bilan harakat qilayotgan bo‘lsin. Ox o‘qining boshlanish nuqtasini quvurning chap uchidan belgilaymiz.



1-rasm. Grunt va yer osti quvurining o‘zaro munosabatining quruq ishqalanish modeli

Quvur va grunt orasidagi o‘zaro munosabatning quruq ishqalanish modelini inobatga olgan holda uzun yer osti quvurining dinamik tenglamasini quyidagicha yozamiz

$$\frac{\partial v}{\partial t} = c^2 \frac{\partial \varepsilon}{\partial x} + \frac{\pi D}{F \rho} \tau(x, t),$$

$$\frac{\partial \varepsilon}{\partial t} = \frac{\partial v}{\partial x},$$
(1)

$$\begin{cases} \tau(x,t) = \tau_0 \text{sign}(v_g - v), \text{ agar } v_g \neq v, \\ |\tau(x,t)| < \tau_0, \text{ agar } v = v_g. \end{cases} \quad (2)$$

Bunda $c = \sqrt{E/\rho}$ – quvurda bo‘ylama to‘lqin tarqalish tezligi; E, ρ – quvur materialining elastiklik moduli va zichligi; ε, v, u – quvur deformatsiyasi, quvur zarralarining tezligi va ko‘chishi; D, F – quvurning ko‘ndalang kesim diametri va yuzasi; E_g – grunt elastiklik moduli; $u_g = u_g(x,t)$ – grunt zarralarining ko‘chishi; ε_g – gruntning deformatsiyasi; $\tau = \tau(x,t)$ – quvur va grunt orasidagi urinma kuchlanish.

Boshlang‘ich shartlarni

$$\varepsilon = 0 \text{ va } v = 0 \quad (3)$$

ko‘rinishda olamiz. Quvurning uchlaridagi chegaraviy shartlar esa masala shartiga mos tarzda turli ko‘rinishlarda olish mumkin. Bajirilgan hisob ishlari kuchlanishdan (deformatsiyadan) ozod chegaraviy shartlarda amalga oshirilgan:

$$\frac{\partial u}{\partial x} \Big|_{x=0} = 0 \text{ va } \frac{\partial u}{\partial x} \Big|_{L=0} = 0.$$

Masalani yechishda chekli ayirmalar sxemasining oshkor ko‘rinishidan foydalanamiz. L uzunlikdagi uzun quvurni m ta Δx uzunlikdagi qismlarga ajratamiz, u holda $L = m \cdot \Delta x$, Δx va Δt orasidagi munosabatni $\Delta x = c \cdot \Delta t$ ko‘rinishda olamiz. (1) va (2) tenglamalar sistemasini quyidagicha chekli ayirmalar sxemasiga approksimatsiya qilamiz

$$\frac{v_{i+1/2}^{j+1} - v_{i+1/2}^j}{\Delta t} = c^2 \frac{\varepsilon_{i+1}^{j+1/2} - \varepsilon_i^{j+1/2}}{\Delta x} + \frac{\pi D}{F\rho} \frac{\tau_{i+1/2}^{j+1} + \tau_{i+1/2}^j}{2}; \quad (4)$$

$$\frac{\varepsilon_{i+1}^{j+1/2} - \varepsilon_i^{j-1/2}}{\Delta t} = \frac{v_{i+1/2}^j - v_{i-1/2}^j}{\Delta x},$$

$$\begin{cases} \tau_{i+1/2}^{j+1} = \tau_0 \text{sign}(v_{g,i+1/2}^{j+1} - v_{i+1/2}^{j+1}), \text{ agar } v_{g,i+1/2}^{j+1} \neq v_{i+1/2}^{j+1}, \\ |\tau_{i+1/2}^{j+1}| < \tau_0, \text{ agar } v_{g,i+1/2}^{j+1} = v_{i+1/2}^{j+1}. \end{cases}$$

Bu tenglamalar sistemasida bir vaqtning o‘zida $v_{i+1/2}^{j+1}$ va $\tau_{i+1/2}^{j+1}$ lar noma’lum bo‘lganligi uchun tenglamalar sistemasini yechishda quyidagicha mantiqiy algoritmdan foydalanamiz. Vaqtning har bir yangi qadamida quvurning har bir nuqtasi uchun ikki xil holatda qo‘yilgan masalani yechamiz:

1. (4) tenglamani $\tau_{i+1/2}^{j+1} = \tau_0$ shart bilan yechamiz;

2. (4) tenglamani $\tau_{i+1/2}^{j+1} = -\tau_0$ shart bilan yechamiz;

I. Agar $(v_{g,i+1/2}^{j+1} - v_{i+1/2}^{j+1})$ qiymatning ishorasi har ikkala holda qo‘yilgan masala uchun bir xil bo‘lsa, u holda shu nuqtada inertsiya kuchi va ichki zo‘riqish kuchi sirpanishdagi ishqalanish kuchini yenggan bo‘ladi. Shuning uchun sirpanishdagi ishqalanish holati sodir bo‘ladi va masalaning haqiqiy yechimi $(v_{g,i+1/2}^{j+1} - v_{i+1/2}^{j+1})$ miqdorning minimal absolyut qiymatiga mos keladi. Chunki ishqalanish kuchi harakatga teskari yo‘nalgan. Bu holda $v \neq v_g$ bo‘lib, urinma kuchlanish

$$\tau_{i+1/2}^{j+1} = \tau_0 \text{sign}(v_{g,i+1/2}^{j+1} - v_{i+1/2}^{j+1}) \quad (5)$$

ko‘rinishda aniqlanadi.

II. Agar $(v_{g,i+1/2}^{j+1} - v_{i+1/2}^{j+1})$ qiymatning ishorasi har ikkala holda qo‘yilgan masala uchun har xil bo‘lsa, shu nuqtada ishqalanish kuchi chegaraviy qiymatidan kichikligi kelib chiqadi, shuning uchun $v_{i+1/2}^{j+1} = v_{g,i+1/2}^{j+1}$ munosabatni qabul qilamiz, bunda quvur va grunt orasida sirpanish sodir bo‘lmaydi hamda shu onda bu nuqtada quvur va grunt zarralari bir xil tezlik bilan harakatlanadi. Bu holatda $\tau_{i+1/2}^{j+1}$ ning qiymati (4) tenglamalar sistemasidagi birinchi tenglamadan aniqlanadi.

$$\tau_{i+1/2}^{j+1} = 2 \left[(v_{g,i+1/2}^{j+1} - v_{i+1/2}^j) - c(\varepsilon_{i+1}^{j+1/2} - \varepsilon_i^{j+1/2}) \right] / (\Delta t q) - \tau_{i+1/2}^j, \quad (6)$$


bunda $q = \pi D / F \rho$.

(1) tenglamani chekli ayirmalar sxemasi orqali yechganda albatta uning turg‘unligi muhim hisoblanadi. Tenglamalar sistemasini chekli ayirmalar usulida approksimatsiya qilinganda, uning turg‘unligi tenglamalar sistemasining xususiy hosilali hadlarini chekli ayirmalar sxemasi shakli bilan belgilanadi. Bu holat uchun chekli ayirmalar sxemasi turg‘un bo‘lishi uchun $\Delta t \cdot c / \Delta x \leq 1$ Kurant sharti bajarilishi zarur. Mazkur tadqiqot ishida Kurant shartining chegaraviy holati, ya’ni $\Delta t \cdot c = \Delta x$ munosabat olingan. Agarda $\Delta t \cdot c / \Delta x < 1$ holat olinsa, u holda olingan natijalarda parazit tebranishlar paydo bo‘ladi. Bu esa natijalarni tahlil qilishda noto‘g‘ri xulosalarga olib kelishi mumkin.

Quruq ishqalanish modelida dinamik tenglamalar sistemasini yechishning yuqorida keltirilgan mantiqiy algoritmining ishonchligini qarab chiqamiz.

Teorema: Yuqorida keltirilgan (4), (5) va (6) chekli ayirmalar sxemasi orqali approksimatsiya qilingan (1) va (2) tenglamalar sistemasining 1, 2 shartlar va I, II mantiqiy algoritm asosida olingan yechimi aniq yechimga yaqinlashishi uchun ixtiyoriy kichik $\delta > 0$ son uchun Kurant shartidan tashqari $\Delta t \cdot |v_g - v| / u_m < \delta$ shart bajarilishi yetarli. Bunda $u_m = 1m$ – o‘lchov birligi konstantasi.

Seysmik to‘lqinlar ta’sirida grunt bilan o‘zaro munosabati quruq ishqalanish modelida bo‘lgan uzun yer osti quvuridagi dinamik jaryonlarni tahlil qilish uchun hisoblash ishlarini quyidagi berilgan ma’lumotlardan foydalanib amalga oshiramiz: $L=1000\text{ m}$; $D=0.61\text{ m}$; $F=0.019\text{ m}^2$; $c=5000\text{ m/s}$; $k_x=10^7\text{ N/m}^3$; $f=0.3$; $\tau_0=5.3\text{ kPa}$; $\Delta t=0.0001\text{ s}$; gruntda to‘lqin tezligining maksimumi $v_{gm}=0.3\text{ m/s}$ (grafiklarda parametrlar qiymatlarini normallashtirish uchun ishlatiladi).




2-rasm. Grunt (ε_g) va quvurning (ε) deformatsiyalari grafiklari.
(a) – $c_g=6000\text{ m/s}$, (b) – $c_g=4000\text{ m/s}$

2-rasmda seysmik to‘lqinning to‘g‘ri burchakli impuls ko‘rinishi uchun grunt va quvurning deformatsiyalari grafiklari keltirilgan. Bunda $c_g > c$ (2a-rasm) va $c_g < c$ (2b-rasm) holatlar uchun hisoblangan natijalar keltirilgan


Masalaning sonli usulda olingan yechimi (2a-rasm) xarakteristikalar usuli orqali hisoblab olingan yechim bilan solishtirilganda natijalar yetarlicha mos keldi.

3-rasmda seysmik to‘lqinning to‘g‘ri burchakli impuls ko‘rinishi uchun grunt va quvurning deformatsiyalari grafigi $c_g=600 \text{ m/s}$ holda keltirilgan. Natijalardan ko‘rish mumkinki, agar gruntdagi to‘lqin tarqalish tezligi yetarlicha kichik bo‘lsa quvur deformatsiyasining maksimal qiymati grunt deformatsiyasining maksimal qiymatigacha yetib bora olmaydi, shu sababli gruntda seysmik to‘lqin to‘g‘ri to‘rtburchak ko‘rinishda berilganda quvurdagi to‘lqinning shakli uchburchak ko‘rinishda bo‘lmoqda.




3-rasm. $t=0.4 \text{ s}$ vaqt onidagi grunt (ε_g) va quvurning (ε) deformatsiyalari grafiklari

Gruntda beriladigan seysmik to‘lqin tezligini bitta davrga mos $v_g = v_{gm} \cos(\omega(t - x/c_g)) \cdot H(t - x/c_g)$ impuls ko‘rinishda berilsa (bu yerda H –Heaviside funksiyasi), u holda $c_g < c$ bo‘lganda quvur o‘qi bo‘ylab jarayonning boshlanishida to‘lqin fronti orqasida siqilish to‘lqini mavjud bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan bu siqilish to‘lqini yo‘qolib boradi. Quvurning chap uchidan ma’lum masofada arra tishlari shaklidagi to‘lqin hosil bo‘ladi (4-rasm), uning maksimal amplitudasi quvurning yon sirtidagi bosimga va quruq ishqalanish koeffitsientiga bog‘liq. Gruntdagi to‘lqinning orqa frontidan keying quvur sohasida qoldiq deformatsiya paydo bo‘lishini ko‘rish mumkin.



4-rasm. Turli vaqt onlaridagi grunt (ε_g) va quvurning (ε) deformatsiyalari grafiklari $c_g=600 \text{ m/s}$, $\omega=31.4 \text{ s}^{-1}$


5-rasmda seysmik to‘lqin tezligi $v_g = a \cos(\omega(t - x/c_g)) \cdot H(t - x/c_g)$ garmonik ko‘rinishda berilgan holat uchun hisoblangan natijalar keltirilgan. Bu holda ham quvur o‘qi bo‘ylab jarayonning boshlanishida, to‘lqin fronti orqasida siqilish to‘lqini mavjud bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan bu siqilish to‘lqini yo‘qolib ketishini ko‘rish mumkin.



5-rasm. Turli vaqt onlaridagi grunt (ε_g) va quvurning (ε) deformatsiyalari grafiklari
 $c_g=600 \text{ m/s}$, $\omega=31.4 \text{ s}^{-1}$

4 va 5-rasmlardan ko‘rish mumkinki quvurdagi to‘lqin tarqalish tezligi grumdagi to‘lqin tarqalish tezligidan katta bo‘lgan dinamik jarayonda quvur bo‘ylab oldinda harakatlanayotgan siquvchi to‘lqinlarni orqa tomondan kelayotgan cho‘zuvchi to‘lqinlar yutib borganligi uchun “Raxmatulin to‘lqini”ga o‘xshash to‘lqinlar paydo bo‘ladi.

O‘zaro munosabat quruq ishqalanish (6a-rasm) va ideal elastik-plastik (6b-rasm) modellarda bo‘lganda $t=0.5 \text{ s}$ vaqt onidagi quvur $\varepsilon_n = \varepsilon / \varepsilon_{gm}$ va grunt $\varepsilon_{gn} = \varepsilon_g / \varepsilon_{gm}$ deformatsiyalarining hamda urinma kuchlanish $\tau_n = \tau / \tau_0$ larning normallashtirilgan grafiklari keltirilgan. Bunda ε_{gm} – grunt deformatsiyasining maksimal absolyut qiymati. Ko‘rinib turibdiki, ideal elastik-plastik o‘zaro ta’sir modelida to‘lqin frontining oldi qismida quvur deformatsiyasi va urinma kuchlanishning kichik qiymati mavjud bo‘lmoqda hamda to‘lqin frontidan boshlab jarayon quruq ishqalanish holatiga o‘tmoqda. Quruq ishqalanish modelida quruq ishqalanish kuchi o‘z yo‘nalishini keskin o‘zgartiradi. Ideal elastik-plastik holatda o‘zaro munosabatdagi quruq ishqalanish holatigacha elastik bo‘lganligi sababli kuchlanish yo‘nalishidagi o‘zgarish ma’lum vaqtdan keyin sodir bo‘ladi.



(a) – quruq ishqalanish modeli

(b) – ideal elastik-plastik model


6-rasm. Quvur (ε_n) va grunt (ε_{gn}) deformatsiyalari hamda urinma kuchlanishlarning (τ_n) normallashtirilgan grafiklari. $c_g=600 \text{ m/s}$, $\omega=31.4 \text{ s}^{-1}$ ($\varepsilon_{gm}=0.0005$)

Ideal elastik-plastik modelda k_x ning qiymati katta bo‘lsa va ishqalanish koeffitsienti o‘zgarmasa, jarayon ham quruq ishqalanish holatiga tezroq chiqadi. Shuningdek bu holatda grumdagi to‘lqin fronti oldidagi quvur sohasidagi sezilarli siqilish jarayoni nisbatan kichik sohada mavjud bo‘ladi.

Dissertatsiyaning “**Chegaraviy shartda quruq ishqalanish modeli dinamik masalalar, bino va inshootlarni seysmik izolyatsiyalash masalasini yechish**” deb nomlangan uchinchi bobida taqsimlangan va jamlangan massali konstruksiyalar


uchun poydevor va rostverk orasida quruq ishqalanish modelidan foydalangan holda seysmik izolyatsiya mavjud boʻlgan bino va inshootlarning seysmodinamikasi masalalarini yechishning yangi algoritmi taklif qilingan.

Dastlab turli modellardan foydalangan holda hisob-kitoblar natijasida olingan natijalarni taqqoslaymiz. Mod1 – qavatlar kesimida jamlangan massalarga ega boʻlgan siljish modeli; Mod2 – Timoshenko balka modeli taqsimlangan va jamlangan parametrlarga ega; Mod3 – Bernulli-Eyler balka modeli taqsimlangan va jamlangan parametrlarga ega.



7-rasm. Abhar (Eron, 8 ballik) haqiqiy zilzila yozuvlari taʼsirida toʻqqiz qavatli binoning birinchi qavatidagi kesuvchi kuch qiymatining oʻzgarishi. Quruq ishqalanish elementini hisobga olgan (a) va hisobga olmagan (b) hollar uchun.

Intensevligi 8 va 9 ballik zilzilalar uchun binolarning jamlangan massalari bilan siljish modelidan, taqsimlangan va jamlangan massali Timoshenko balka va Bernoulli-Eyler balka modellari yordamida hisoblangan kesish kuchlari mos ravishda 20% va 60% gacha farqlanadi (7-rasm). Sirpanuvchan poydevorli binolarni hisoblashda Timoshenko balka modelidan foydalanishni tavsiya qilishimiz mumkin, chunki bu model binolarning egilish va siljish tebranishlarini hisobga oladi. Bizning masalada qaralayotgan binolarda gruntning karakteristiklari hisobga olinmaydi va asosan siljishga ishlagani uchun biz quyida keltiriladigan masalalarni siljish modelida hisoblab natijalarni solishtiramiz.



8-rasm. Jamlangan massaga ega elastik sterjen koʻrinishidagi konstruksiyaning hisoblash sxemasi (a), koʻp qavatli bino qattiq asosga ega boʻlganda (b) va seysmik izolyatsiya qilingandagi (c) hisoblash sxemalari

Quruq ishqalanish yordamida koʻp qavatli binolarni seysmik izolyatsiya qilishning hisoblash sxemasi quyidagi shaklni oladi (8-rasm).

Bino jamlangan massalar va inersiyasiz elastik bog‘lanishlarga ega bo‘lgan bir o‘lchovli ko‘ndalang model bilan ifodalanadi. Ushbu konstruksiya uchun siljish chekli elementlarini qo‘llaymiz, natijada quyidagi oddiy differensial tenglamalar sistemasiga kelamiz:

$$[M] \cdot \{\ddot{U}\} + [C] \cdot \{\dot{U}\} + [K] \cdot \{U\} = \{Q(t)\} \quad (7)$$

$$\{U\} = \{U_{st}\}, \quad \{\dot{U}\} = 0, \text{ da } t = 0,$$

bunda $[M]$ – massalarning diagonal matritsasi, $[K]$ – bikrlilik matritsasi; $[C] = \alpha \cdot [M] + \beta \cdot [K]$ – qovushqoqlik matritsasi Reley usulida har bir element uchun alohida quyidagi ko‘rinishda quriladi:

$$[C^e] = \alpha_i [M^e] + \beta_i [K^e]$$

α_i, β_i – tebranish energiyasini yo‘qotish foizi orqali yoki logarifmik dekrement va xususiy chastotalari orqali topiladi. $\{U\} = \{u_0, u_1, \dots, u_n, v_1, \dots, v_n\}^T$ – ko‘chish vektori, u_i, v_i – i -chi massaning gorizontaal va vertikal ko‘chishi; $\{U_{st}\}$ – vaqtning dastlabki momentidagi ko‘chish vektori, ko‘ndalang ko‘chishga mos keladigan bu vektor elementlari nolga teng, vertikal ko‘chish esa statik masala yechimidan aniqlanadi. $[M_0]$ massa va sirpanuvchan pastki poydevorning o‘zaro bog‘lanish sharti quyidagi shaklni oladi

$$u_0 = u_g - u_r, \text{ agar } |F_0| < |F_{fr}|, \text{ ya'ni birgalikda harakatlanayotganda,} \quad (8)$$

$$F_0 = F_{fr}, \text{ sirpanganda,} \quad (9)$$

bunda u_0, v_0 – rostverkning ko‘chishlari, u_g, v_g – poydevorning pastki qismining gorizontaal va vertikal ko‘chishlari, ya‘ni raqamlashtirilgan zilzila seysmogrammasining taxminiy funktsiyalari; u_r – poydevorning rostverkka nisbatan sirpanishsiz ko‘chishining boshlanishi onidagi qiymati, ularning birgalikdagi harakati davrida bu qiymat o‘zgarmaydi (boshlang‘ich vaqtda $u_r=0$), F_0 – asos va poydevor orasidagi kuchning noma‘lum qiymati; $F_{fr} = \text{sign}(\dot{u}_g - \dot{u}_0) \cdot f \cdot P$ – sirpanishdagi quruq ishqalanish kuchining qiymati, f – quruq ishqalanish koeffitsienti; P – dinamik jarayonda poydevorning sirpanish elementiga bosim kuchi, agar vertikal tebranishlar hisobga olinmasa bu kuch binoning og‘irligi hisoblanadi.

Shuni ta‘kidlash kerakki, vertikal tebranishlar binolarning gorizontaal tebranishlariga bog‘liq emas va gorizontaal tebranishlar (9) sharti orqali binolarning vertikal tebranishlariga bog‘liq bo‘ladi, chunki vertikal tebranishlar paytida sirpanuvchan poydevorga bosim o‘zgaradi.

Birgalikdagi harakatda u_0 siljish (8) tenglikdan aniqlanadi va M_1 massa uchun harakat tenglamasi quyidagi shaklni oladi:

$$M_1 \ddot{u}_1 + k_1 u_1 + c_1 \dot{u}_1 - k_2 (u_2 - u_1) - c_2 (\dot{u}_2 - \dot{u}_1) = k_1 u_0 + c_1 \dot{u}_0 \quad (10)$$

Ushbu holatda $Q_1 = k_1 u_0 + c_1 \dot{u}_0$ vektorning jamlangan massalarning gorizontaal ko‘chishlariga mos keladigan qolgan elementlari $\{Q\}$ nolga teng. M_1 massaning vertikal harakati tenglamasi (10) ga o‘xshash shaklni oladi.

Quruq ishqalanish bilan sirpanish faqat (9) shart bajarilganda sodir bo‘ladi. Ko‘rib chiqilayotgan (7), (8), (9) masalalar nochiziqli masalalar bo‘lib, noma‘lum funktsiya F_0 mavjud va dinamik jarayon davomida $[M]$ va $[K]$ matritsalarining

o'lchamlari o'zgarib turadi. Sirpanishdagi holat uchun M_0 massa tenglamasi quyidagicha bo'ladi.

$$M_0 \cdot \ddot{u}_0 - k_1(u_1 - u_0) - c_1(\dot{u}_1 - \dot{u}_0) = F_{fr}, \text{ hamda } Q_0 = F_{fr}.$$

Masalani to'raligicha yechish uchun quyidagi algoritmdan foydalanamiz. Har bir vaqt qadamida masalani uchta variantda yechamiz:

1. (7) tenglama (8) shart bilan yechiladi;
2. (7) tenglama (9) shart bilan yechiladi, $F_0 = f \cdot P$ bo'lganda;
3. (7) tenglama (9) shart bilan yechiladi, $F_0 = -f \cdot P$ bo'lganda.


Matritsalar $[M]$ va $[K]$ birinchi formulada ikkalasi ham $2n \times 2n$ o'lchamga ega (bunda n – binoning qavatlar soni) va ikkinchi va uchinchi formulalarda $(2n+1) \times 2n$ ga teng bo'ladi. Ushbu uchta yechimdan haqiqiy yechimni tanlash II bobda keltirilgan mantiqiy algoritm asosida amalga oshiriladi.

Hisob jarayoni vaqtida $[M]$, $[K]$, $[C]$ matritsalarining o'lchamlari o'zgarib turadi. Uchala masala ham Nyumark usuli bo'yicha yechiladi. Aproksimatsiyaning vaqt qadami zilzilalarni qayd etish qadamidan kichikroq bo'lganda raqamlashtirilgan zilzila seysmogrammasi qayd etish bosqichlari oralig'ida ko'pchilik hollarda chiziqli funksiya bilan aproksimatsiya qilinadi. Lekin Nyumark usulida tezliklar va tezlanishlar qiymatlaridan, shu jumladan ularning berilgan seysmik to'lqindagi qiymatlaridan foydalaniladi. Tezlik va tezlanishlarni hisoblashda raqamlashtirilgan seysmogrammalarini chiziqli funksiya bilan aproksimatsiya qilib foydalansak qo'pol xatolarga olib keladi. Shuning uchun seysmik to'lqin tezlanishlarda beriladi, keyin esa tezliklar va ko'chishlar Nyumark formulalari bo'yicha hisoblanadi. Hisoblashlarning raqamlash qadamiga nisbatan vaqt bo'yicha maydaroq qadamlar bilan amalga oshirilishini ta'minlash uchun Ermit splaynidan foydalaniladi.

